

Darsliklar vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish vositasi**Urazboyeva Sabohat Ortiqboyevna**

Urganch innovatsion university oʻqituvchi-stajyori

Telefon: +998(99)1517997

sabohat@icloud.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda xalqimizning tarixiy merosi, vatanparvarlik tuygʻularini oʻrganish, ularning ongida vatanparvarlik tuygʻularini shakllantirish, ular oʻz vatan oldidagi burchini anglashi, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimlari, zamonaviy va anʼanaviy usullaridan foydalanish koʻzda tutilgan.

Kalit soʻzlar: Vatan, yoshlar, vatan tuygʻusi, vatan tuygʻusi shakllantirish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, mustahkamlash, darslik.

Современные учебники – средство формирования чувства патриотизма**Уразбоева Сабохат Артикбоевна**

Преподаватель-стажер Ургенчского инновационного университета

Телефон: +998(99)1517997

sabohat@icloud.com

АННОТАЦИЯ: В данной статье рассматривается историческое наследие нашего народа, изучение патриотических чувств, формирование патриотических чувств в их сознании, понимание им своего долга перед своей страной, использование систем патриотического воспитания, современных и традиционных методов в воспитание нашей молодежи в духе патриотизма проводится в.

Ключевые слова. Отечество, молодежь, чувство Родины, формирование чувства Родины, воспитание в духе патриотизма, укрепление, учебник.

Modern textbooks are a means of forming a sense of patriotism

Urazboyeva Sabohat Artikboyevna

Teacher-trainee at Urganch Innovation University

Phone: +998(99)1517997

sabohat@icloud.com

ANNOTATION: In this article, the historical heritage of our people, the study of patriotic feelings, the formation of patriotic feelings in their minds, their understanding of their duty to their country, the use of systems, modern and traditional methods of educating our youth in the spirit of patriotism are discussed in this article. held in

Keywords: Fatherland, youth, feeling of the homeland, formation of the feeling of the homeland, education in the spirit of patriotism, strengthening, textbook.

Kirish. Darsliklarda o'quvchilar milliy o'zligini anglashi, ularning o'z xalqining tarixiy, madaniy va til merosini anglashiga katta ahamiyat beradi. Bu jarayon ta'lim tizimining muhim jihatlaridan biri bo'lib, yosh avlodni milliy qadriyatlar, an'analar va madaniyat bilan tanishtirishga yordam beradi. Vatanparvarlik – barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy bo'lgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning o'z vatanlari taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning o'zlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning o'tmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon bo'ladi [3].

Zamonaviy darsliklar vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Bu darsliklar oʻquvchilarda milliy oʻzlikni anglash, oʻz tarixini va madaniyatini hurmat qilish, shuningdek, vatanga nisbatan sevgini rivojlantirishga xizmat qiladi. Vatanparvarlik tuygʻusini shakllantirish — bu insonning oʻz Vataniga boʻlgan muhabbat, hurmat va sadoqatini tarbiyalash jarayonidir. Vatanparvarlik nafaqat milliy gʻurur, balki oʻz Vataniga xizmat qilish, uning rivojlanishiga hissa qoʻshish va jamiyatning farovonligini taʼminlash masʼuliyatini his qilishni anglatadi.

Adabiyotlar sharhi. Vatanparvarlik – barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy boʻlgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuygʻu, maʼnaviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning oʻz vatanlari taqdiri bilan bogʻliq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning oʻzlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yoʻlidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuygʻular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning oʻtmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon boʻladi [3]. Vatanparvarlik insonning oʻz oilasiga, avlod-ajdodlarining or-nomusiga chuqur ehtiromi, vijdoniga, burchiga va oʻz soʻziga sodiqligidir. Shuning uchun ham Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash boʻyicha uzluksiz olib boriladigan ishlar biz uchun dolzarb ahamiyatga egadir. Vatanparvarlik har bir davlat hayotining maʼnaviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon boʻladi, deya bu jarayonga yuksak baho bergan edi [4]. Tarixga nazar tashlasak, buyuk saltanat egasi Zahiriddin Muhammad Bobur ijodi bunga yaqqol misol boʻla oladi. Buyuk davlat arbobo, sarkarda hukmdor, moʻgʻullar saltanatining asoschisi, isteʼdodli yozuvchi, shoir va faylasuf, mashhur “Bobur-noma” (“Bobur eslatmalari”) aftobiografik muallifi Zoxiriddin Muhammad Bobur. Maʼlumki, Bobur maʼrifatli va adolatli hukmdor, sanʼat, fan va madaniyat homiysi edi. Oʻzi isteʼdodli shoir va yozuvchi boʻlib, u Agradagi (Hindiston) saroyi atrofiga butun badiiy elitani toʻpladi. Bobur oʻz hukumdorligining qisqa yillarida mamlakatdagi siyosiy vaziyatni barqarorlashtirish, shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish, halfaro savdo aloqalarini yaxshilash borasida koʻp ishlarni amalga oshirdi.

Uning sharofati bilan karvonsaroylar, kutubxonalar qurilishi keng tus oldi, Hindiston me'morchiligi va san'atida Markaziy Osiyo uslubi mustahkam o'rin oldi. Buning ajablanarli joyi yo'q, chunki bunda hukmdorning o'zi ham bor edi [6].

Mazmuni. Darsliklarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish — ta'lim tizimining eng muhim vazifalaridan biridir. Bu tuyg'u o'quvchilarda milliy g'urur, Vatanga bo'lgan sevgi va sadoqatni shakllantirishga qaratilgan. Quyidagi jihatlar zamonaviy darsliklar vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishda qanday rol o'ynashi mumkinligini ko'rsatadi:

- 1. Tarixiy bilimlar:** Zamonaviy darsliklar milliy tariximizni o'rgatish orqali o'quvchilarda o'z vatani haqidagi g'ururni yaratadi. Ularda milliy qahramonlar, mustaqillik kurashi va buyuk voqealar haqida tushunchalar shakllanadi. Tarixni bilish, uning o'rganilishi orqali bolalar va o'smirlar o'z xalqining o'tmishiga nisbatan hurmatini oshiradilar.
- 2. Milliy qadriyatlar:** Darsliklar o'quvchilarga milliy qadriyatlar va an'analarni o'rgatishda muhim rol o'ynaydi. Ular xalqning urf-odatlarini, bayramlari va madaniy merosiga bo'lgan hurmatni rivojlantirishga yordam beradi.
- 3. Badiiy adabiyot:** Darsliklarda milliy adabiyotning asarlari, she'rlar, hikoyalar va romanchilarni o'qish orqali o'quvchilar vatan sevgisini, uning go'zalligini va ahamiyatini anglashadi. Milliy adabiyot, shuningdek, xalqning ma'naviyati va umumbashariy qadriyatlar bilan bog'liq bo'lgan tushunchalarni shakllantiradi.
- 4. Vatandoshlar va madaniyat:** Darsliklarda turli xalqlar va ularning madaniyatlari haqida ma'lumot berish o'quvchilarni boshqa xalqlarga hurmat bilan qarashga, global hamkorlik va bag'rikenglikni tushunishga yordam beradi. Shuningdek, o'z vatanining turli etnik guruhlar bilan birgalikda rivojlanishini tushunishga yordam beradi.
- 5. Ijtimoiy va axloqiy me'yorlar:** Zamonaviy darsliklarda ijtimoiy mas'uliyat, mehnatsevarlik va halollik kabi ijtimoiy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatish, o'quvchilarga vatanparvarlikni amalda namoyon etish imkonini yaratadi.

6. Texnologiya va zamonaviy bilimlar: Bugungi kunda darsliklar nafaqat an'anaviy bilimlarni, balki zamonaviy ilm-fan va texnologiyalarni ham o'z ichiga oladi. Bu, o'z navbatida, yoshlarni yangi bilimlarga ega bo'lishga va ularni o'z vatanining taraqqiyotiga yo'naltirishga undaydi.

Shu tariqa, zamonaviy darsliklar o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Bu jarayon milliy o'zlikni, tarixi va madaniyatni hurmat qilishni, shuningdek, jamiyatda faol va mas'uliyatli fuqaro bo'lishni shakllantiradi.

Natijalar. Boshlang'ich sinflar kesimida ona tili darsliklarini tahlil qilib vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishni ko'rib chiqamiz.

1-sinf ona tili darsligida o'quvchilar O' va E unlisi mavzusi asosida "O'zbekiston kelajagi buyuk davlat" mavzusini yoritib shu mavzu asosida matn tuzishi kerak. Mustahkamlash darsida esa berilgan rasm asosida tinchlik, osayishtalik va davlat ramzlari haqida bilimlarini chuqurlashtiradilar. Bularidan tashqari "Vatan ostonadan boshlanadi", "Vataning tinch sen tinch", "Vatan qadrini bilmagan, O'z qadrini bilmas" mavzulari asosida darslikda vatanparvarlik hislatlarini shakllantirishimiz mumkin. [12].

2-sinf yangi zamonaviy ona tili darsligida Tovushlar va harflar mavzusida shunday matn berilgan

- Bobojon, davlat o'zi nima?
- Bolam, qara, dunyo xaritasiga e'tibor qil. Unda davlatimiz O'zbekiston boshqa yuzlab davlatlar ichida ajralib turibdi. Davlat, eng avvalo, o'z maydoniga ega bo'lishi kerak. Davlatning o'z aholisi, hamma birdek amal qiladigan qonunlari bo'ladi. Eng muhimi, davlat mustaqil bo'ladi.
- Davlat ham bizning oilaga o'xshar ekan. Faqat u oilamizdan million marta kattaroq! Yani bu matn orqali oila eng kichik vatan ekanligi oilani tinchligi farovonligini vatn tinchligi bilan bog'lagan holda tushuntirish kerak bo'ladi.

Mehmondo'st o'zbek xalqi mavzusida: Buvijon, Halima kelinoyi qo'llarini ko'ksiga qo'yib, menga choy uzatdilar. Shirinliklarni oldinga qo'yib: "Oling, ola qoling", dedilar. O'zbek xalqi - mehmondo'st xalq. Mehmon kelganda uning yoshiga, kimligiga qarab o'tirmaydi. Har bir mehmon e'zozlanadi, hurmat qilinadi. Bu - xalqimizning eng go'zal odoblaridan biri. Yani bu matn asosida o'zbek xalqining qadiryatlari va an'analari haqida o'quvchilarga yangi bilimlar beriladi. Bu bilimlar bilan ularda vatanga bo'lgan hurmat va uni har bir qadiryatini e'zozlash ko'nikmalarini shakillantiribboramiz.

O'zbekistonning noyob tabiati mavzusi asosida esa o'quvchilar vatanimizni tabiati bilan va noyob hayvonlari bilan tanishib yashash tarzini o'rganadilar Hunar – hunardan unar mavzusi asosida esa vatanimiz joylashishi va viloyatlar haqida bilimlarini oshiradilar. [10].

3-sinf yangi ona tili darsligida ham vatan haqidagi bilimlar yangi g'oyalar va topshiriqlar tizimida ishlab chiqilgan jumladan "Xotira muqaddas" (Ibrat) matnida quyidagi ma'lumotlarni o'quvchilarga yetkazish mumkin:

"Odamzod uzoq umri davomida elim deb, yurtim deb barakali mehnat qiladi. Ba'zilar Vatan uchun jonini fido etadi. Ba'zilar halol ishlab, faxriylar safidan munosib o'rin oladi.

Vatan ozodligi va mustaqilligi uchun jonini fido etgan ajdodlar yodi minnatdor avlodlar xotirasida abadiy saqlanadi. Vatan ravnaqi, farovon hayot uchun fidokorona mehnat qilgan faxriylar e'zozlanadi, hurmat bilan qadrlanadi." Bu matn asosida o'quvchilarga vatanimiz mustaqilligi va ozod va obod vatan bo'lishida qanday mashaqatli ishlar olib borilganligi va bunda ota bobolarimizni fido bo'lganligi haqida ma'lumotlar berilib shu vatanni mustaqilligini himoya qilish bizni qo'llimizda ekanligini yangi g'oyalar va metodlar asosida tushuntirib berish zarur. [11].

4-sinf yangi ona tili darsligida o'quvchilarni yosh xususiyatlari inobatga olingan holda mavzular murakkabroq tarzda beriladi. Tovushlar va harflar mavzusini o'rgatish bilan o'quvchilarda vatanparvarlik jihatlarini birgalikda she'r mathida o'rganibchiqiladi. Sen dilda qo'shiqsan, elga nur madhing,

O'zbekim, o'zligim, hayotim, borim.
Jahonga namoyon qudrat-u ko'rking,
Turkiy el so'zligim, ona diyorim,
Yerlari muqaddas O'zbekistonsan.

Nazarmat Egamnazarov

She'rlarni o'qib yod olish bilan birga berilgan she'rni ma'no mazmuni o'rganilib o'quvchilar bunday fikrlash va teran o'ylash ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Yani asosiy mavzu tovush va harflar bo'lishiga qaramasdan mazmun o'quvchilarni vatanparvar inson sifatida tarbiyalashdek g'oyalar ilgari surilgan. Ma'nodosh so'zlar mavzusida esa shunday topshiriq berilgan:

72-mashq. Vatan, ona yurt, ramz, qomus, Davlat madhiyasi, gerbi, bayrog'i, Mustaqillik kuni, mustaqillik, erk, istiqlool, tabriklamoq, qutlamoq kabi ma'nodosh so'zlardan foydalanib, "Davlat ramzlari" mavzusida matn yaratish topshiriq sifatida berilgan endi o'quvchilarni yosh xususiyatini inobatga olgan holda ularni fikrlash qobiliyatini va qolaversa lug'at boyliklarini o'rganish maqsadida topshiriq tog'ri berilgan. Ijodkorlik soati. Loyiha ish mavzusida berilgan topshiriqni tahlil qilsak. 40-mashq. Partadoshingiz yoki sinfdoshingiz bilan "Men Vatanimni sevaman" mavzusida intervyu tayyorlang va taqdim eting.

"Men Vatanimni sevaman" mavzusida intervyu rejasi:

1. Tanishtiruv.
2. Suhbatdoshingiz haqida qisqacha ma'lumot.
3. Savollar:
 - a) Vatan deganda nimani tushunasiz?
 - b) Vatan oldidagi burch va majburiyatlaringiz.
 - d) Siz kelajakda vatan uchun nimalar qila olishingizni ko'z oldingizga keltira olasizmi?
 - e) Yurtimizga kelgan chet ellik do'stlaringiz sizdan vatanningizdagi milliylikka xos bo'lgan jihatlarni so'rasa, nimalarni ayta olasiz?
4. Xayrlashuv.

Bundan berilgan savollardan bilish mumkinki o'quvchilar fikrlarini jamlagan holda va shu paytgacha vatan haqidagi egalagan tushunchalarini qo'llagan holda erkin bir intervyu tayyorlashi kerak bu bilan o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'usi mustaqil ravishda shakillanib boradi. [9].

Xulosa. Bilish mumkunki bajarilishi kerak bo'lgan topshiriqlar qiyinlik darajasi ham bosqichma bosqich murakablashib borilgan yani oldiniga tayyor matnlar asosida o'quvchilar o'z fikrlarini namoyon qilib topshiriqni bajarsa kiyinchalik esa berilgan mavzu asosida o'z fikrlarini qoidalar asosida keltirib mavzu asosini yoritib berish ko'zda tutilgan, bu bilan ularda bilim ko'nikma va malaka jihatlar shakillanib tafakkur doirasi kengayib erkin fikrlash qobiliyati shakillanadi.

Umuman olganda, zamonaviy darsliklar nafaqat ilmiy bilimlar berishi, balki vatanparvarlik tuyg'usini rivojlantirish, yoshlarni milliy g'urur va mas'uliyat hissi bilan tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Zamonaviy darsliklar o'quvchilarga vatanparvarlikning faqat faollar, jangchilar yoki tarixiy qahramonlar bilan bog'lanmasligini, balki har bir insonning o'z jamiyatiga, o'z faoliyatiga, kasbiga va ona tili hamda madaniyatiga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi kerakligini tushuntirishi lozim. Vatanparvarlikni shakllantirishda, har bir o'quvchining mamlakatni yanada rivojlantirish yo'lida qilgan hissasi muhim ekanini ko'rsatish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Matchonov S. "Boshlang'ich sinflarda ona tili va uni o'qitish metodikasi" (Boshlang'ich ta'lim talabalari uchun darslik). T:Ishonchli hamkor, 2021-y
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-"O'zbekiston" -2016. 56 B.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent-"O'zbekiston" -2016.488 B.

4. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevoridir // Xalq so‘zi. 247 (6741)-soni. – 2017. 7 dekabr.
5. Vazirlar Mahkamasining «Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2023 yil 29 iyundagi 267- son qarori.
6. Bobur «Bobur-noma» Baku, 2011. B. 24, 139.
7. 4.A.Pirniyazova "Boshlang‘ich sinf ona tili o‘qitish metodikasi ", Toshkent 2018
8. Jo'rayev A.S. "Ta'limning interfaol usullari" (o‘quv qo‘llanma) Buxoro 2006 4. Karima Qosimova " Ona o‘qitish metodikasi" Toshkent 2009
9. 4-sinf ona tili darsligi D.D Baynazarova,M.E.Tairova Toshkent 2023
10. 2-sinf ona tili darsligi S.D.Kuranov Navda Toshkent 2023.
11. 3-sinf ona tili darsligi D.D.Baynazarova. M.E.Toirova. “Navda Edutainment” Toshkent 2023.
12. 1-sinf ona tili darsligi D.Sh.Yuldasheva Navda Toshkent 2023.